
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorova Ra’no Abdunazar qizi
TTYSI magistranti

Sindarova Shoxista Maxammatovna
TTYSI “Moda va dizayn kafedrasi dotsenti,PhD.,

Annotatsiya: Ushbu maqolada murakkab bichimdagi ustki kiyimlarni loyihalash va modellashtirishning zamonaviy usullari, konstruktiv yechimlari hamda mato xossalarining kiyim shakliga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, an’anaviy grafik usullar, muqobil mulyaj yondashuvi hamda zamonaviy 3D raqamli texnologiyalar - Clo3D va Optitex dasturlarining o‘zaro integratsiyasi, ularning kiyim konstruksiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari murakkab bichimli ustki kiyimlarni yaratishda raqamli modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish mahsulot sifati, aniqligi va estetik ko‘rsatkichlarini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ustki kiyim, murakkab bichim, modellashtirish, mulyaj usuli, SAPR, 3D konstruksiyalash, mato plastikligi, assimetriya, konstruktiv chiziqlar.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы современные методы проектирования и моделирования верхней одежды сложного кроя, конструктивные решения, а также влияние свойств ткани на формообразование изделия. Освещены вопросы интеграции традиционных графических методов, альтернативного метода муляжа и современных цифровых 3D-технологий - Clo3D и Optitex, а также их роль в совершенствовании конструкции одежды и повышении эффективности производства. Результаты исследования показывают, что использование цифровых технологий моделирования при создании верхней одежды сложного кроя способствует повышению качества продукции, точности конструкции и эстетических показателей.

Ключевые слова: верхняя одежда, сложный крой, моделирование, метод муляжа, САПР, 3D-конструирование, пластичность ткани, асимметрия, конструктивные линии.

Abstract: This article analyzes modern methods of designing and modeling complex-cut outerwear, constructive solutions, and the influence of fabric properties on garment shaping. The study also highlights the integration of traditional graphic methods, alternative draping techniques, and modern 3D digital technologies such as Clo3D and Optitex, as well as their role in improving garment construction and increasing production efficiency. The research findings demonstrate that the use of digital modeling technologies in the development of complex-cut outerwear enhances product quality, construction accuracy, and aesthetic characteristics.

Keywords: outerwear, complex cut, modeling, draping method, CAD, 3D garment construction, fabric plasticity, asymmetry, constructive lines.

KIRISH

Zamonaviy moda sanoatida iste'molchilarning kiyim-kechak turlariga, xususan, ustki kiyimlarga (palto, kurtka, plash) bo‘lgan talabi nafaqat ularning himoya funksiyasi (issiq saqlash, shamol va yomg‘irdan himoya qilish), balki estetik mukammalligi va o‘ziga xosligi bilan ham belgilanmoqda. Bugungi kunda murakkab bichimdagi kiyim shakllari (asimmetrik, giperbolik hajmlar, transformatsiyalanuvchi elementlar) dizaynerlar va konstruktorlar oldiga yangi muhandislik vazifalarini qo‘ymoqda.

Ustki kiyimlarni modellashtirish - bu ko‘p qatlamli paket tarkibi (asosiy mato, qotirma, issiqlik saqlovchi material va astar) hamda inson tanasining dinamik harakatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan murakkab muhandislik jarayonidir. Bichim murakkablashgani sari an'anaviy konstruksiyalash usullarining (masalan, EMKO SEV, Myuller va o‘g‘illari) tekislikdagi hisob-kitoblari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli, murakkab konstruksiyalarni yaratishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va yangi metodologik yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.


MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Muhandislik grafikasi, raqamli modellashtirish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida kiyim loyihalash masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgani aniqlandi. Xususan, S. Sindarova va hammualliflar talabalarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirishda AutoCAD va zamonaviy grafik dasturlarning ahamiyatini ta'kidlab, raqamli texnologiyalar loyihalash jarayonining aniqligi va samaradorligini oshirishini qayd etganlar. Z. Mirzaliyev, S. Sindarova va S. Eraliyevalar esa grafik fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar hamda amaliy yondashuvlarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rnini yoritganlar. U. T.

Rixsiboyev va hamkorlari AutoCAD dasturidan foydalanish orqali konstruktiv chiziqlarni avtomatlashtirish masalalarini tahlil qilib, SAPR texnologiyalarining loyihalash sifatini oshirishdagi afzalliklarini ko‘rsatganlar. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan 3D konstruksiyalash, muqobil mulyaj usullari va mato plastikligini hisobga olgan holda modellashtirish texnologiyalari murakkab bichimli kiyimlarni yaratishda muhim omil sifatida e’tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Murakkab bichimdagi ustki kiyimlarning shakli odatda kiyimning an‘anaviy siluet tushunchalaridan (to‘g‘ri, trapesiya, yarim yopishgan) chetga chiqadi. Bunday kiyimlar arxitektonikasini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:



Hajmiy-fazo shakllari: oversayz (oversize), O-siluet (pilla shakli) va dekonstruktiv shakllar.

Yeng turlarining murakkab kombinatsiyalari: reglanka-koketka, yaxlit bichilgan yenglar (ostki qismi qo‘shimcha bo‘lakli - “lastovitsa”li), diagonal chiziqli yenglar hamda yaponcha bichimdagi (“kimono”) yenglar.

Assimetriya va drapirovkalar: kiyimning chap va o‘ng tomonlarining mutanosib bo‘lmasligi, old bo‘lakda hosil bo‘luvchi murakkab burmalar hamda burma-cho‘ntaklar.

Konstruksiyani murakkablashtiruvchi asosiy omillardan biri bu konstruktiv-dekorativ chiziqlar (releflar, podrezlar) hisoblanadi. An’anaviy ko‘krak va bel vatachkalari (vytochka) kiyimning estetik ko‘rinishini ta’minlash maqsadida relef chiziqlariga ko‘chiriladi yoki murakkab burmalar ichiga yashiriladi. Bunday holatda andozalarni to‘g‘ri shakllantirish uchun tananing bo‘rtib chiqqan qismlari (ko‘krak, kurak, dumba) va ularning kiyim sirtidagi proeksiyalari matematik aniqlikda hisoblanishi lozim.

Murakkab hajmli ustki kiyimlarni loyihalashda materialshunoslik asoslarini chuqur bilish talab etiladi. Mato xususiyatlari kiyimning yakuniy ko‘rinishini to‘liq belgilaydi. Matoning buralganda va erkin osilib turganda qanday shakl olishi uning plastikligiga bog‘liq. Agar dizayn yumshoq qatlamlar va to‘lqinli burmalardan iborat bo‘lsa, plastikligi yuqori bo‘lgan materiallar (jun, kashmir, yumshoq tvid) tanlanadi. Agar kiyim geometrik, qat’iy va arxitekturaviy shaklga ega bo‘lishi kerak bo‘lsa, shaklni saqlovchi zich matolar (drap, sukno, laminatsiyalangan va ko‘p qatlamli membranali matolar) qo‘llaniladi.

Namlab-isitib ishlov berish (NII) xususiyati ustki kiyim matolarida, ayniqsa jun to‘qimalarda, qisqarish va cho‘zilish (surova va otyajka) jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Murakkab bichilgan yenglar va bo‘yinbozlar sohasida matoga dazmol yordamida shakl beriladi. Agar mato NII jarayoniga yetarlicha beriluvchan bo‘lmasa, konstruksiyada qo‘shimcha choklar kiritilishi majburiy hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ustki kiyimda asosiy matodan tashqari, issiqlik saqlovchi qatlam (sintepon, tivit, junli vatin) va astar matosi mavjud. Murakkab bichimda ushbu qatlamlarning qalinligi hisobiga ichki o‘lchamlar kichrayadi.


1-jadval

Murakkab konstruksiyalarni loyihalashda qatlamlar qalinligi bo‘yicha beriladigan minimal qo‘shimcha haq (priposka) miqdorlari

Kiyim turi	Paket qalinligi (mm)	Erkin harakatlanish uchun qo‘shimcha haq P_{g}, sm)	Texnologik paket qalinligi uchun qo‘shimcha (sm)
Yengil plash/Palto	1.5 - 2.5	1.5 - 2.5, 6.0 - 8.0	1.0-1.5
Mavsumiy (demisezon) palto	3.0 - 4.5	8.5-11.0	2.0-2.5
Qishki qalin palto/Kurtka	5.8-8.0	12.0-16.0	3.5-4.5

Modellashtirish va konstruksiyalashda murakkab shakllarni yaratish uchun konstruktorlar uchta asosiy usuldan foydalanadilar. Eng yuqori natijaga ushbu usullarni o‘zaro kombinatsiyalash orqali erishiladi (1-jadval).

Grafik-analitik modellashtirish kiyimning tayanch asos andozasini (baza) chizishdan boshlanadi. Keyinchalik grafik usul orqali vitochkalarning o‘rni o‘zgartiriladi, bo‘laklar parallel yoki konussimon tarzda kengaytiriladi. Biroq bichim haddan tashqari murakkab bo‘lganda (masalan, uch o‘lchamli spiral releflarda) tekislikdagi chizma kiyimning fazoviy holatini to‘liq, ya’ni 100% aniqlikda aks ettira olmaydi.



Mulyaj (makatlash yoki tatbiq etish) usuli kutyure (Haute Couture) modalar uyining poydevori hisoblanadi. Dizayner to‘g‘ridan-to‘g‘ri maneken yoki inson tanasida bo‘z (makat) matosidan foydalanib, kiyim shaklini pinlar yordamida sanchish orqali hosil qiladi.

• Afzalligi: matoning to‘kilishi, burmalanishi va dinamikasi real vaqt rejimida ko‘rinadi. Ushbu usul murakkab drapajlar va asimmetrik siluetlarni yaratishda eng samarali yondashuv hisoblanadi.

• Kamchiligi: ko‘p vaqt va yuqori xarajat talab qiladi, shuningdek, ommaviy ishlab chiqarishga moslashtirish murakkab hisoblanadi.

Zamonaviy 3D raqamli modellashtirish bugungi kunda kiyim-kechak SAPR (kompyuterlashtirilgan loyihalash tizimlari) dasturlari - Clo3D, Marvelous Designer, Optitex va Lectra orqali inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Konstruktor andozani 2D tekislikda chizadi va uni darhol virtual manekenga (avatar) “kiygizib” ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dasturdagi “Stress Map” (kuchlanish xaritasi) funksiyasi kiyimning qaysi qismi qisib turgani yoki qayerda mato ortiqcha bo‘lib osilib qolganini ranglar (qizil,

ko‘k, yashil) yordamida ko‘rsatadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida nuqsonli andozalar ulushini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Murakkab bichimdagi ustki kiyimlarni yig‘ish (tikish) jarayoni ham standart kiyimlardan keskin farq qiladi va quyidagi texnologik qoidalarga rioya qilishni talab etadi:

1. Dublyajlash (Duplication): murakkab kesimlar, asimmetrik burchaklar va cho‘ntak atroflari kiyim deformatsiyalanib ketmasligi uchun flizelin yoki dublerin yordamida to‘liq yoki qisman qotiriladi.
2. Murakkab burchaklarni qayta ishlash: relef chiziqlari o‘tkir burchak ostida kesishganda chok haqlari ichki tomondan qirqiladi (nadsechka qilinadi), aks holda chok ichida mato to‘planib, kiyimning tashqi ko‘rinishini buzadi.
3. Astar va asos mutanosibligi: murakkab bichimli ustki kiyimlarda astar matosi asos andozasidan biroz erkinroq qilib bichiladi (odatda orqa bo‘lak o‘rtasidan 1,5-2,0 sm katlama burma beriladi). Bu esa harakat jarayonida kiyimning tortishib qolishining oldini oladi.

XULOSA

Murakkab bichimdagi ustki kiyimlarni modellashtirish - bu san’at va aniq muhandislik fanlarining sintezidir. Zamonaviy bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh kiyimlarni yaratishda faqat dizaynerlik fantaziyasining o‘zi yetarli emas. Konstruktor matoning fizik-mexanik xususiyatlarini hamda ko‘p qatlamli kiyim paketining qalinligini andozaga to‘g‘ri tatbiq eta olishi lozim.

An’anaviy mulyaj uslubining estetik imkoniyatlarini zamonaviy 3D raqamli dasturlar (SAPR) bilan uyg‘unlashtirish kiyim loyihalash jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi, xomashyo sarfini kamaytiradi va mahsulotning yuqori sifatini ta’minlaydi. Kelajakda kiyim modellashtirish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilgan antropometrik ma’lumotlar hamda sun’iy intellekt tizimlari yordamida yanada optimallashtirilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sindarova Sh. AUTOCAD dasturidan foydalanib talabalarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirish // Наука и технология в современном мире. - 2023. - Т. 2. - № 14. - Б. 38-41.
2. Mirzaliyev Z. E., Sindarova S., Eraliyeva S. Z. Develop students’ knowledge, skills and competencies through the use of game technology in the teaching of school drawing // American Journal of Social and Humanitarian Research. - 2021. - Vol. 2. - No. 1. - P. 58-62.

3. Sindarova S. M., Rikhsibaev U. T., Khalilova H. E. The need to research and use advanced pedagogical technologies in the development of students' creative research // Academic Research in Modern Science. - 2022. - Vol. 1. - No. 12. - P. 34-40.

4. Mirzaliev Z., Sindarova S., Eraliyeva S. Organization of independent work of students on drawing for implementation of the practice-oriented approach in training // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2019. - Vol. 17. - No. 1. - P. 297-298.

5. Sindarova Sh. M. O'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish (chizmachilik fani misolida) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. - 2021. - T. 1. - № 11. - Б. 686-691.

6. Maxammatovna S. S. Methods of solving some problems of teaching engineering graphics // Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2022. - No. 7. - P. 97-102.

7. Rixsiboev U. T., Xalilova X. E., Sindarova Sh. M. AutoCAD dasturidan foydalanib detallardagi o'tish chiziqlarini qurishni avtomatlashtirish // Science and Education. - 2022. - T. 3. - № 4. - Б. 534-541.

8. Bobomurotov T. G., Rikhsiboev U. T. Fundamentals of designing triangles into sections equal 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17 and 19 // Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. - 2022. - Vol. 3. - No. 2. - P. 96-101.

9. Makhammatovna S. S. Pedagogical and psychological aspects of improving the methods of developing students' creative research // Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. - 2023. - Vol. 2. - No. 3. - P. 37-41.

10. Abduraximova F. A., Ibroximova D. N. Q., Sindarova Sh. M., Pardaev M. S. O'. G'. L. Trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish uchun paxta va ipak ipini tayyorlash va foydalanish texnologiyasi // Science and Education. - 2022. - T. 3. - № 4. - Б. 448-452.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/